



O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik markazi

Adabiyot fani darslarida o'quvchilarda o'qish savodxonligi ko'nikmasini shakllantirishda zamonaviy metodlardan foydalanish

Hamroyeva Nozigul G'ayratovna, Buxoro viloyati pedagogik
mahorat markazi, metodik xizmat ko'rsatish bo'limi ona tili va
adabiyot fani metodisti.

ADABIYOT FANI DARSLARIDA O‘QISH SAVODXONLIGI KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH UCHUN NIMALARGA E‘TIBOR BERISH LOZIM?

- topshiriqlar aniq, puxta va muayyan maqsadga qaratilishi, bunda o‘quvchining yosh va fiziologik xususiyatlari, shuningdek, mavjud bilimlari nazarda tutilishi;
- topshiriqlar qulay va yengil bajarilishiga sharoit yaratish, ya’ni mantiqiy ketma-ketlik asosida chizmalar, jadvallar, audio, video matnlar, diagramma topshiriqlar mazmuniga doir adabiyotlar, muayyan tavsiya va fikrlarni tahlil qilish va amalda qo‘llash;
- va illyustratsiyalardan unumli foydalanish;
- topshiriqlar fan dasturiga mos va to‘liq shaklda bajarilishini nazarda tutish;
- topshiriqlar hajmining me’yorida bo‘lishi;
- o‘quvchilarning amalda topshiriqlar yuzasidan mustaqil ish olib borishlariga tegishli sharoit va ish natijalarini xulosalashga imkon yaratish;
- turli interaktiv metodlar va tahlil usullaridan foydalanish.

O'QUVCHILARDA BADIY MATNNI O'QISHGA QIZIQTIRISH USULLARI

- ❖ O'quvchilarda adabiyot faniga bo'lgan qiziqishni uyg'otish uchun avvalo, ularga matnning qiziqarli syujetlarini so'zlash;
- ❖ Metodlarni to'g'ri qo'llash orqali matnni qayta o'qishga undash;
- ❖ Matnda ilgari surilgan go'yani to'g'ri tahlil qilishga o'rgatish;
- ❖ Matndagi eng qiziq lavhani sahnalashtirish orqali samaradorlikka erishish.

“PSIXOLOGIK TAHLIL” METODI



Asar qahramonlarining ichki psixologik holati tahlil qilinadi, ularning motivlari va hissiyotlari o‘rganiladi va topshiriq bajariladi..

TOPSHIRIQ: Abdulla Qahhorning “**O‘g‘ri**” hikoyasi qahramonlarini ruhiy holatidan kelib chiqib, fasllarga joylang.



“TAFSIRIY O‘QISH VA TAHLIL” METODI

Asardagi ramzlar, metaforalar va simvollarni chuqur tahlil qilish orqali muallifning g‘oyasi anglanadi.

TOPSHIRIQ: G‘afur G‘ulomning “***Shum bola***” asaridan olingan quyidagi savolga tanqidiy javob bering va xulosalaringizni ayting.

Boyning shum bolaga “xizmat haqi uchun oyiga xompishiq aralash, ona sutidan halol ikki pud o‘n yetti qadoqdan olma” berishi adolatdan edimi?



“TARIXIY-IJTIMOIIY TAHLIL” METODI

Asarning yaratilgan davri va ijtimoiy-madaniy hayoti mulohaza qilinadi, bu orqali asarda ifodalangan g'oyalar anglanadi.

TOPSHIRIQ: O'qituvchingiz hamrohligida hududingizdagi muzeyga tashrif buyuring, u yerdagi tarixiy davrlar haqida suhbatlashing va savollarga javob bering.

Savol: G'afur G'ulomning “***Shum bola***” asarida keltirilgan davrda qanday ijtimoiy davr va undagi madaniyat tasvirlangan? Ayni o'sha davrlarda Evropada qanaqa vaziyat hukmron edi?

Xulosalaringizni qisqacha yozing.




“O‘ZIM MUALLIF” METODI

Asardagi asosiy qahramonlardan birining o‘rnida bo‘lish va uning nuqtai nazaridan asarni qayta yozish.

TOPSHIRIQ: “*Birinchi sinov*”

hikoyasi asosida berilgan ushbu rasmga diqqat qiling va qayta hikoya tuzing.




“SAHNA TAHLILI” METODI



- Asarning muhim bir sahnasi tanlanadi va uning soʻzlar, harakatlar va tushunchalar boʻyicha tahlili amalga oshiriladi.
- **TOPSHIRIQ:** Siz, detektiv janridagi asarni oʻqidingiz va oʻzingizga detektiv surishtiruvchi lozim boʻlib qoldi. 3 yoki 5 kishilik guruhlariga boʻling. Jumboqni oʻrganing, 5 daqiqali sahna koʻrinishi tayyorlab, jumboqni yeching.
- **JUMBOQ:** *Anvar(oʻrtada) doʻppi ustida tortishayotgan ikki bolani tunchlantirdi. Doʻppi kimga tegishli ekanligini aniqlab, ikki doʻstni yarashtirib qoʻydi. Sizningcha, doʻppining egasi kimligini Anvar qanday aniqladi?*

“GRAFIKLI HIKOYA TAHLILI” METODI

Asar asosida gavdalangan qahramon surati yaratiladi, bu orqali kreativlik aniqlandi.



TOPSHIRIQ: Suratdagi buvi obrazi orqali xayolingizda kim gavdalandi? Shu tasavvur asosida portret yarating. Dastlab portret yozish tartibi haqida ma'lumotga ega bo'ling va quyidagilarga diqqat qiling. Portretni so'zlar orqali yoki rasm asosida ifodalash mumkin.

DIQQAT! Topshiriqni baholashda quyidagilar inobatga olinadi.

So'z asosida ifodalanganda

- mazmunga;
- imlo savodxonligiga;
- uslubiy savodxonlikka e'tibor berish lozim.

Ranglar orqali ifodalanganda

- rasm grafiklari to'g'ri chizilganligi;
- ranglar to'g'ri tanlanganligi va grafiklar to'g'ri chizilganligiga e'tibor berish lozim.

“DIALEKTOLOGIK (SHEVA) TAHLIL” METODI

Asarda ishlatilgan dialekt yoki shevalarni aniqlanadi, jadvalga joylanadi va ularning izohi yoziladi.


T/r	Shevaga oid soʻzlar	Soʻzlar izohi
1	qoraxat	
2	palos	
3	chillaki	
4	durra	
5	xoʻtik	
6	toʻqoch	
7	qoʻr	
8		
9		

TOPSHIRIQ: “*Mening oʻgʻrigina bolam*” hikoyasida uchraydigan shevaga oid soʻzlarni topib, jadval tayyorlang va ularning izohini yozing.

“HARAKATLAR XARITASI TAHLILI” METODI

Asar davomida qahramonlarning harakatlarini kuzating va holatlarini ko'rsatuvchi darajali xarita tuzing va ularning o'zgarish sababini izohlang.

TOPSHIRIQ: “*Birinchi sinov*” hikoyasini diqqat bilan o'qing va shu asosida qahramonlarning ishtroki qay darajada ekanligini bildiruvchi diagramma tayyorlang.



“RAMZLAR RO‘YXATI TAHLILI” METODI

• **TOPSHIRIQ:** Matn “**Mallalar uyushmasi**” asaridan olingan. Ushbu asar nomi bilan bo‘g‘liq ramzlarni toping va izohlang. Suratdagi itning asarga qanday dahli bor?

• O‘zlaringiz ko‘rib turibsizlarki, jentlmenlar, mening sochim yorqin, serjilo tusga ega bo‘lgan to‘q mallarang soch, mallalar raqobat qilib qolganlarida ham baribir men bu bo‘sh o‘rinni egallasam kerak, deb o‘ylagan edim. Vinsent Spolding bu ishdan har tomonlama xabardor bo‘lgani uchun menga katta yordam berishi mumkin edi, shuning uchun ham darchalarni kechgacha yopib, meni uyushma binosiga kuzatib borishini buyurdim. U bugun ishdan ozod bo‘lganiga juda sevinib ketdi. Biz idorani berkitib, e‘londa ko‘rsatilgan manzilga qarab jo‘nadik. U yerda shunday bir tomoshani ko‘rdimki, mister Xolms, bunday tomoshani endi sira ham ko‘rolmasam kerak. Shimoldan, janubdan, sharqdan, g‘arbdan kimningki sochi sal-pal malla tusli bo‘lsa, e‘lonni o‘qiboq Sitiga yopirilib kelaveribdi. Flit-stritda mallalar tirband bo‘lib ketgan. Pops-koort esa apelsinfurushning g‘altak aravasiga o‘xshar edi. Men hech qachon Angliyada shuncha malla bor, deb o‘ylamagan edim.



“KREATIV TAHLIL” METODI

TOPSHRIQ: Ushbu surat asosida fantastik hikoya tuzing. Tasavvur qiling, Siz va do'stlaringiz shu yerga tushib qoldingiz, yuk xaltangizda bitta ruchka, yarimta non, bitta gilamcha, 4 metr arqon va bir jom ichimlik suvi bor. 5 kun ichida oroldan chiqib ketishingiz lozim. Sizga ushbu buyumlarning yordami kerak bo'ladi.



“TINGLAB-TUSHUNISH TAHLILI”METODI



TOPSHIRIQ: Tinglab tushunamiz. QR kod orqali **“Mening o‘g‘rigina bolam”** asari audio matnini diqqat bilan tinglang va tushirib qoldirilgan jummalarni to‘ldiring.

Sentyabr oylarining oxiri, ilk kuz oqshomlaridan biri edi. Havo anchagina salqin. Biz _____ bir-birimizning pinjimizga tiqilib, bir-birimizni isitib uyquga ketganmiz. Qatorda eng so‘nggi bo‘lib, ona chumchuqday _____ yotardilar, u kishi _____ oshib ketgan, noskas kampir edilar. Bu oqshom uch xo‘roz qichqirig‘i o‘tgandan keyin, _____ yulduzi tik kelganda g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir ovozdan uyg‘onib ketdim. _____ kim bilandir anchagina baland _____ suhbatlashmoqda edilar...

Men gap shu yerlarga kelganda _____ ketgan bo‘lsam kerak. Qolgan gaplarni eshitganimcha qilib yozaman. - Hoy, aylanay, _____, boshimda shunday musibat turganda ko‘zimga uyqu keladimi? Mana: olti oy bo‘ldi, biror soat mijja qoqib uxlaganim yo‘q. Kunduz kunlar _____ dovdirab yuraman. Biror yerga o‘tib mizg‘iganday qush uyqusi qilaman. Kechalari xayol olib qochib ketadi.

- Nimalarni xayol surasiz, buvijon? - bu gapdan keyin ustidagi to‘nini _____ bo‘g‘otning ustiga yostiq qilib qo‘yib, o‘g‘ri ham yonboshlab oldi.

“TAHLILIY O‘QISH “ METODI

TOPSHIRIQ: 4-5-kishilik guruhlarga bo‘ling. Savollarga tezkor javob bering va guruhungizga rag‘batlar yig‘ing.

SAVOLLAR:

1. G‘afur G‘ulomning otasi qanday taxalluslar bilan ijod qilgan?
2. Asardagi Qoravoyning laqabi nima edi?
3. Qoravoyning do‘stining ismi kim?
4. Sariboy ismiga qaysi nom qo‘shib aytilar edi?
5. Shum bolaning barcha gaplari yolg‘onligini bilishgandan so‘ng uni qanday jazolashadi?
6. Qaysi yolg‘ondan so‘ng boy choy ichib turgan piyolasini boshiga urib, chakkasini yorib, soqolini yulib, dodlab, yig‘lay boshlaydi?
7. “Shum bola” asarining qahramoni necha yoshda edi?
8. Shum bola nima uchun uyidan chiqib ketadi?
9. Shum bola qissasidagi har gapida xudoni tilga oladigan, ikkiyuzlamachi obraz kim?

“QIYOSIY TAHLIL” METODI

Badiiy asarlar boshqa asarlar bilan solishtiriladi va ularning o‘zaro aloqalari o‘rganiladi.

TOPSHIRIQ: “*Birinchii sinov*” hikoyasini diqqat bilan o‘qing. Shu paytgacha o‘qigan fantastik asarlaringiz bilan solishtiring, bu asarlar orasida qanday aloqadorlik borligini o‘ylab ko‘ring va qisqacha tavsif tayyorlang.

PISA O'QISH SAVODXONLIGI

O'qish va o'qish savodxonligiga berilgan ta'riflar jamiyat, iqtisodiyot, madaniyat va texnologiyadagi o'zgarishlarni aks ettirish uchun yillar mobaynida o'zgarishlarga uchradi. O'qish ta'lim olish jarayonining ilk yillarida yoshlikda egallanadigan qobiliyatgina bo'lib hisoblanmaydi. Aksincha, u insonning o'z tengqurlari va jamiyatning boshqa a'zolari bilan muloqotga kirishishi orqali turli vaziyatlarda butun hayoti mobaynida shakllanib, kengayib boradigan bilim, ko'nikmalar va strategiya sifatida qaraladi. Shunday ekan, o'qish savodxonligi fuqarolar bir-birlari bilan matnli artefaktlar yordamida o'zaro muloqotga kirishish usullari va uning fuqarolar butun hayotlari davomida o'qib-o'rganishlarida tutgan ahamiyati sifatida qaralishi kerak.



1-savol va tahlili

Asalarilar raqsidan maqsad nima?

- A) Asalning muvaffaqiyatli ishlab chiqarilishini nishonlash
- B) Ozuqa izlovchilar topgan o'simlik turini ko'rsatish
- C) Yangi malika asalarining tug'ilgan kunini nishonlash
- D) Ozuqa izlovchilar qayerdan ozuqa topganlarini ko'rsatish.

SAVOL MAQSADI:

Keng tushunchani shakllantirish: matnning mustaqil bo'limining asosiy g'oyasini tushunish.

O'quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to'liq qabul qilinadi va to'liq kredit beriladi: D) Ozuqa izlovchilar qayerdan ozuqa topganlarini ko'rsatish.

O'quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:

2-SAVOL VA TAHLILI

Nektarning uchta asosiy manbasini yozing.

1. _____

2. _____

3. _____

SAVOL MAQSADI: Ma'lumotlarni eslab qolish: tom ma'noda mos, chalg'ituvchi ma'lumotning mavjud emasligi.

a: mevali daraxtlar b: beda c: gullaydigan daraxtlar d: daraxtlar e: gullar

O'quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to'liq qabul qilinadi va to'liq kredit beriladi:

J: (istalgan ketma-ketlikda) abc, abe, bde

O'quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:

Boshqa javoblar, a,b,c,d va e yoki boshqa berilgan javoblar ya'ni **mevalar kabiva**

3-savol tahlili

Nektar va asal nimasi bilan bir-biridan farqlanadi?

- A) Ulardagi suvning nisbati B) Ulardagi shakarning minerallarga nisbati
C) Ular yig'iladigan o'simlik turi D) Ularni hosil qiluvchi asalari turi

3-savolning baholash mezonlari

SAVOL MAQSADI: Tushunishni rivojlantirish: faktlar ketma-ketligi o'rtasidagi munosabat borasida xulosa chiqarish.

O'quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to'liq qabul qilinadi va to'liq kredit beriladi:

- A) Ulardagi suvning nisbati.

O'quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:

Boshqa javoblar. Javob mavjud emas.

4-SAVOL
RAQSDA ASALARILAR YEMISHNI UYADAN QANCHA UZOQLIGINI
KO'RSATISH UCHUN NIMA QILADILAR?

SAVOL MAQSADI: Ma'lumotlarni eslab qolish: matndan aniq ma'lumotlarni topish.

- ***O'quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar to'liq qabul qilinadi va to'liq kredit beriladi:***

HAM qorin silkinishi HAM qorin silkingan vaqt davomiyligi borasida berilgan ma'lumotga murojaat qilishi kerak.
orqali uning qanchalik masofada ekanligini ko'rsatadi.

YOKI: Qornini silkitishini inobatga olmagan holda vaqt davomiyligini nazarda tutadi.

U qancha raqsga tushadi?

Ahamiyatsiz, noto'g'ri, to'liqsiz yoki noaniq javob.

Asalari 8 raqami bo'ylab qanchalik tez yuradi?

- 8 raqami qanchalik kattalikda.
- Asalari qanday harakatlanadi.
- Raqs.
- Qorin.

O'quvchi tomonidan quyidagi mazmunda javoblar berilganda, ushbu javoblar qabul qilinmaydi va kredit berilmaydi:

Topshiriqdan chetlashish.

Javob mavjud emas

Xulosa

Bu kabi tahliliy mashg'ulotlar o'quvchini mustaqil shug'ullanishi, o'z ustida ishlashini yuksaltiradi va fanga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi. PISA Xalqaro baholash dasturining asosiy mohiyati o'qish savodxonligi bo'lib, aynan adabiyot fani dars mashg'ulotlari maydonga chiqadi. Fan asoslarini amaliyoti bilan o'zaro uyg'unligi ta'minlash, ta'lim oluvchilarni individual faoliyatga undaydi. Bilish, qo'llash, mulohaza qila olish ko'nikmasini shakllantiradi.

O'z navbatida bunday ko'nikmalar, mustaqil bilim olish, o'z ustida ishlash, mavjud intellektual imkoniyatlarni to'la namoyon etishga xizmat qilishi nuqtayi nazaridan ham ahamiyatli bo'ladi. Zamonaviy yondashuv asosidagi darslar o'quvchining muayyan yo'nalishda o'zlashtirilgan bilimlarini mustahkamlashi barobarida tabiat va jamiyatlardagi muammolarni tushunish va hal qilishga doir ko'nikmalarini shakllantirish maqsadini ham nazarda tutadi

E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!

[www.https://trm.uz/uz](https://trm.uz/uz)

https://t.me/trm_uz

<https://www.facebook.com/trmuz>
